

Qoraxoniylar davriga oid xazina topildi

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani "Shohruxiya" mahalla fuqarolari yig'ini Hosildor mahallasining janubidagi Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Shohruxiya arxeologik yodgorligining daryoga tutash jarligidan shu yerli fuqaro Shodiyor Ergashev ko'kimtir tusga kirib qolgan 427 dona mis tangalarning jamlanmasiga duch kelgan. Tangalarni olayotganda paytda ular solib qo'yilgan mato qopcha titilib, kuinga aylanib ketgan.



Topilmaning noyobligini tushunib yetgan Shodiyor Ergashev bu haqda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutiga, xususan, bizga murojaat qildi. Xabarni olgach, 2021-yilning 18-aprel kuni Shohruxiyaga yetib borildi. Topilmalarni ilmiy jihatdan o'rganish uchun Institutga olib kelindi.

Ko'rinishidan zang bosib, ko'kimtir tusga kirib qolgan mis tangalarning bir nechtasi tozalandi. O'rganishlar natijasida ularning og'irligi 4 grammdan, diametri 31-33 mm.dan iborat ekanligi aniqlandi. Tangalarning har ikkala tomoniga bo'rtma shaklida arab yozuvida matnlar bitilib, bezaklar tushirilgan.

Tanganing old tomoniga qavariq ko'rinishdagi ikki qatorli, sakkiz qirrali geometrik shaklli hoshiya ichiga arab harflaridagi رسول / محمد / الله / لا اله الا - "Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad Allohning Rasuli" so'zlari bitilgan. Hoshiyadan tashqarida, tanganing chetiga ham aylanisiga arab harflarida so'zlar yozilgan bo'lib, ular o'chib ketganligi sababli nimalar yozilganligini aniqlashning imkoni bo'lmadi.

Tanganing orqa tomoniga ham qavariq ko'rinishda ikki qator halqa ichiga nuqtachalar tushirilgan bo'lib, hoshiya ichiga to'rt tomonidan tashqariga bargsimon bezatilgan kvadratcha ichiga esa arabiy harflarida / ارسلان / خاقان - "Arslon xoqon" so'zlari bitilgan. Tanganing bu tomonidagi hoshiya tashqarisidagi arabiy harflar chekilgan yozuvlar ham o'chib ketgan.



Mazkur tanganing zarb etilish davri Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (?-1130/1131) nomi bilan bog'liq. U 1102-1130-yillarda Movarounnahrni boshqargan. Tanganing zarb etilish davri unda zikr etilgan Arslon xoqon nomi orqali o'z tasdig'ini topadi. Tanganing tahlili o'sha davrda bu hukmdor "Arslon xoqon" deb nomlanganligini ko'rsatadi. Bu ma'lumot ham tariximizni oydinlashtirish uchun muhim ashyoviy dalil sanaladi.

Topilmalar aniqlangan Shohruxiya yodgorligi milodiy I asrlardayoq mustahkam boshqaruv tizimi, ya'ni qarorgoh - ark va aholi yashaydigan qism - shahristondan iborat shahar bo'lgan. IX-XII asrlarda shahar rivojlanib, Banokat nomi bilan mashhur bo'lgan va shu nom bilan tangalar ham zarb qilingan. Mo'g'ullar

davrida vayron etilgach, Amir Temur hukumronligi davrida qayta tiklanib, Shohruxiya nomini olgan. XVIII asrlarga kelib esa yana xarobaga aylangan. Ushbu shahar o'z vaqtida janubdan Toshkent vohasi kirib kelinadigan karvon yo'lini va Turonning shimoliy o'lkalari nazorat qilinadigan qo'rg'on-shahar vazifasini bajargan. Ehtimol shahar ahli orasidagi savdogar yoki amaldor bu topilgan tangalarning egasi bo'lishi mumkin.

Dilmurod NORMURODOV,

Fanlar akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i